

“TURKIY XALQLAR FOLKLORINING OIYOSIY O’RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

O‘ZBEK XALQ ERTAKLARIDA AJDARHO OBRAZI

Hamza Kamalovich ALLAMBERGENOV,

*filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15290891>

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada ajdarho obrazining shakllanishi va takomilida ilon haqidagi tasavvurlar muhim rol o‘ynaganligi, ajdarhoning og‘zidan olov purkash motivi insoniyatning ibtidoiy davrida – olovga diniy-magik kuch sifatida munosabatda bo‘lgan davrlarida paydo bo‘lganligi, o‘zida uch qavatli olam qahramonini aks ettirishi, qahramonning botirligi, yengilmasligini ifoda etish uchun sinov vazifasini ham bajarishi, ertak qahramoni uni mag‘lub etish orqali o‘zining jasoratini va kuch-qudratini namoyon etishi lozimligi asoslangan.*

***Kalit so‘zlar:** xalq ertaklari, ajdarho obrazi, genezis, evolyutsiya, jon, uch qavatli olam.*

***Аннотация.** В данной статье представления о змее сыграли важную роль в формировании и развитии образа дракона, мотив огня, извергающегося из пасти дракона, появился еще в первобытную эпоху человечества - когда к огню относились как к религиозно-магической силе, он отражает героя трехъярусного мира, он также служит испытанием для выражения храбрости и непобедимости героя, герой сказки, победив его, обосновывает необходимость проявления своего мужества и силы.*

***Ключевые слова:** народные сказки, образ дракона, генезис, эволюция, душа, трехъярусный мир.*

***Abstract.** This article highlights the significant role that the image of the snake played in shaping the dragon's figure. The motif of fire spewing from the dragon's mouth, originating in primitive times when fire held religious and magical significance, reflects the hero's role in the three-tiered world. The dragon also serves as a test of bravery and invincibility; by defeating it, the hero demonstrates his courage and strength.*

***Keywords:** folk tales, dragon image, genesis, evolution, soul, three-tiered universe.*

Insoniyat tafakkurining yaratqilari mahsuli, birinchi navbatda, barcha xalqlarning, shu jumladan, turkiy xalqlarning ham yetuk, takrorlanmas ma’naviy merosidir. Zotan, ma’naviy meros sog‘lom tafakkur va dunyoqarashning o‘zaro uyg‘unligi, ezgulik, bag‘rikenglik, insonparvarlik, qahramonlik, sharqona odob-axloq singari qarashlar hamda tushunchalar har bir xalqning, qolaversa, jamiki insoniyatning jamiyatdagi o‘z o‘rnini topishiga asosiy omildir. Bu fazilatlar asrlar mobaynida ma’naviy hayotni shakllantirib, o‘ziga xos og‘zaki adabiy jarayonga asos bo‘ldi. Faqat shular emas, balki ilk bor miqlar ana shu biz aytayotgan adabiy jarayonning ibtidosi sifatida folklorshunoslarning e’tiborini jalb qilib keladi. Zotan turkiy xalqlar ertaklari, eposlari, ertak va afsonalari doimo bashariyatning ma’naviy rivoji uchun bitmas-tuganmas manba sifatida xizmat qilib kelmoqda.

“TURKIY XALQLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Turkiy xalqlar ertaklarida ibtidoiy fikrlashning mahsuli bo‘lgan g‘ayritabiiy timsollar ko‘p uchraydi. O‘zbek xalq ertaklarida, dostonlarida va qadimgi yozma yodgorliklaridagi ana shunday g‘ayritabiiy timsollardan biri **ajdahodir**. Bu timsol keng tarqalgan bo‘lib, ayrim hollarda yovuzlik ma‘nosini ifoda etadi. Ko‘p hollarda esa ajdarho mifologik obrazining **genezisi** semantik va funksional jihatdan „**Avesto**“ga borib taqaladi. „O‘zbek folklori“ darsligida ham dev, pari, Semurg‘, Jo‘mard, Axriman, Zakhok, Siyovush kabi ko‘plab obrazlar qatorida ajdar obrazining tarixiy asoslari zardushtiylik mifologiyasiga borib taqalishi haqida so‘z yuritilgan [Mirzayev T. va b. 1: 33].

Haqiqatdan ham, xalq ertaklarida keng qo‘llanilgan ajdarho obrazi asrlar mobaynida shakllangan, mifologik mazmuni o‘zida jamlagan og‘zaki ijod namunasidir. Bu obraz „Uch og‘ayni botirlar“, „Rustamzod va Sherzod“, „Aqlli qiz“, „Qirq kuyov“, „Qahramon“, „Ayiqqolvon“, „Devbachcha“, „G‘ulombachcha“, „Ajdar qush“, „Quyosh yerining pahlavoni“ o‘zbek xalq ertaklarida **ajdar, ajdaho, ardarho** nomlari bilan ifoda etiladi. Xalq ertaklarida ajdarho obrazi asosan **g‘orlarda va yer ostida yashovchi, xazinani qo‘riqlovchi** yoki har yili muayyan muddatda belgilangan o‘lja uchun keluvchi, ba‘zi hollarda qahramonga yordam beruvchi g‘ayritabiiy timsol sifatida istifoda etiladi. Shu bilan birga, „G‘ulombachcha“ ertagida tasvirlangani kabi g‘oyatda qo‘rqinchli va nihoyat darajada ulkan hamda vahimalidir: „*Juda vahimali, baland chakalakzor o‘rmon, bir tomondan shamol chiqqanday bo‘libdi. Shipirindilar, daraxt barglari xuddi ajinaning girvotidek bir g‘ordan chiqib, yana bir g‘or ichiga kirib ketarmish. Yaqinroq borib qarasa, ajdarhoning burnidan chiqqan nafasi ekan. Shamol hatto o‘zini ham olib ketgudaymish*“ [O‘zbek xalq ertaklari. 9: 214-215]. U har kuni tunda: oqshom payti yoki tongga yaqin o‘ljasini izlab chiqadi. „**Rustamzod va Sherzod**“ o‘zbek xalq ertagida tasvirlanganidek: „*bu shaharga har kechasi ajdarho kelib, tashqarida qolgan jondor bo‘lsa, o‘z damiga tortib ketar edi. Ajdarho kunduzi bir g‘orga kirib yotar edi*“ [O‘zbek xalq ertaklari. 9: 143]. Akademik V.V.Bartoldga 1890-yilda Tulkiboshda (hozirgi Chimkent viloyati Tulkibosh tumani) shunday bir naqlni so‘zlab beradilar: qishloqdan besh chaqirim narida bir g‘or bo‘lib, uning ichidagi bir toshga odamni yutib turgan ilon surati o‘yilgan emish, g‘ordan doim tutun chiqib turarmish [Бартольд В. 2: 115]. Ammo manbalarga ko‘ra mazkur g‘or ilmiy o‘rganilmagan, toshni ham hech kim ko‘rmagan. Bu esa so‘z yuritilayotgan naqlning yo odamlar xotirasidan ko‘tarilgani yoki ajdar haqidagi xalq orasida to‘qilgan navbatdagi afsona bo‘lishi mumkinligi to‘g‘risida farazni keltirib chiqaradi. Har holda, ikkinchi faraz

“TURKIY XALQLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

haqiqatga yaqinroq keladi. Negaki turkiy xalqlarning asrlar mobaynida yaratgan badiiy tafakkuri mahsuli sifatida mazkur mavzuga oid bo‘lgan afsona va naqlar, ertaklar ko‘plab uchraydi. Ajdarlarning o‘rmonlarda, baland tepaliklar ostida, tog‘ etaklarida yoki g‘orlarda yashashi tasvirida ham xalqlarimizning ushbu g‘ayritabiiy obrazning ilohiy qudrat yoxud o‘zida boshqa – narigi dunyo bilan bog‘liq tasavvurlarni aks ettirganiga oid qarashlari yotadi. „Uch og‘ayni botirlar“ o‘zbek xalq ertagida ham ajdar makoni g‘or bo‘lgan, ovozi vahimali, boshi xumday, uzunligi xariday (xari – imorat to‘sinlari ostidan ko‘ndalangiga qo‘yiladigan uzun, yo‘g‘on asosiy yog‘och [Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 8: 385]), o‘rmlab yuradigan jonzod sifatida tasvirlanadi. Jabbor Eshonqulovning ham yozganidek, „barcha turkiy xalqlarning an‘anaviy dunyoqarashlarida yer osti dunyosi tog‘ va g‘orlar bilan bog‘lanadiki, bu qadim turklarda ushbu joylar ilohiy va muqaddas sanalganidan dalolat beradi. Shomonlar shunday joylarga kelib topinishgan, qurbonliklar qilishgan. Ajdodlarimiz tog‘ning yuqori qismida Ezgulik, ostida Yovuzlik kuchlari yashashlariga ishonganlar“ [Эшонқулов Ж. 3: 15].

Fikrimizcha, **ajdarho obrazining shakllanishida ilon muhim rol o‘ynagan.** Chunki inson hayotida va uning tabiat bilan moslashuvida atrof-javonibdagi yovvoyi hayvonlar hamda jonzotlarning ta’siri mavjud bo‘lishi shubhasiz. Shu bois ham qozoq va qoraqalpoq folklori namunalarida ba’zan ushbu obraz ilon („jilan“ yoki „qara jilan“) shaklida ham ifoda etiladi. J.Frezer va V.Y.Propplar ham „xalq og‘zaki ijodidagi antropofornik obrazlarni hayvonlarning madaniylashuvi oqibatida paydo bo‘lgan“ [Фрэзер Дж. 7], deb sharhlagan edilar. Odamning ulardan qo‘rqishi zahirida badiiy obrazga aylanayotgan timsolda yer ostida yashashi va tashqariga o‘rmlab ovga chiqishidan tashqari turfa yangicha ko‘rinish hamda badiiy funksiyalar yuklanadi. Unda uch qavatli olam modeliga oid bo‘lgan yangi shakl – qanot bitadi. „Mo‘g‘ullar mifologiyasida ham olam uch qism: osmon, zamin, yer osti dunyosidan iborat. Bu mifologiya turkiy xalqlarga yaqin bo‘lganligi uchun olimlar ko‘pincha mo‘g‘ul-turk mifologiyasi atamasini qo‘llaydilar“ [Мифы народов Мира. 5. 171-174].

Ibtidoiy tafakkurda ilonlar bilan bog‘liq tasavvurlar asosida shakllangan ajdarho obrazi o‘zining tarixiy taraqqiyoti mobaynida og‘zaki ijod namunalarida bir qancha obrazlarning paydo bo‘lishiga ham asos bo‘la oldi. Jumladan, unga xos bo‘lgan qo‘rqinchli ko‘rinish hamda mifologik elementlar keyingi bosqichlarda devlar hamda afsonaviy qahramonlarga singib bordi. Folklorshunos olim Jabbor Eshonqulov ham „ajdarho devning ilk ko‘rinishi bo‘lib, uning dastlabki qiyofasi ham ertak va

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

dostonlarimizda saqlanib qolgan. Devlar bo‘lsa, ajdarhoning birmuncha odam qiyofasini olgan ko‘rinishidir... Ajdarhoga qurbon qilinayotgan qiz yoki bola dev yeyish uchun olib kelgan odamlar bilan aynan bir narsadir. Ajdarhoning uchib yurishi haqidagi qarashlar esa odam qiyofasidagi devning uchib yurishiga olib kelgan“ [Эшонкулов Ж. 3: 9], deya ta’kidlagan edi. Ajdarho obraziga xos bo‘lgan g‘ayritabiiy unsurlar, aql bovar qilmas kuch-qudrat keyingi bosqichlarda xalq qahramonlariga, alp bahodirlarga ham ko‘cha borgan. Ularning qahr-u g‘azabi, kuchli psixologik holatlarini tasvirlashda mana shu tasvir usuli ertak va doston aytuvchilariga juda qo‘l kelgan. V.M.Jirmunskiy, H.T.Zaripovlar ham alplar qahlansa „... ilonday zahri kelib, ajdarday to‘lg‘anib, ko‘zlari olovday yonib ketishi“ [Жирмунский В. 4: 308-309] haqida yozgan edilar.

Ayrim o‘zbek xalq ertaklarida **ajdar qanotli** tarzda tasvirlanadi. Jumladan, „Ajdar qush“ o‘zbek xalq ertagidagi ajdar obrazi o‘zining semantik va funksional xususiyatlari bilan shomonlikdagi ajdar obraziga aynan uyg‘un keladi: „*G‘or yaqinidagi bir daraxtda keksayib qolgan ajdar qush yashar ekan. Bir kuni ajdar qush qizni ko‘rib oshiq bo‘libdi*“ [O‘zbek xalq ertaklari. 10: 250]. Insoniylik xususiyatlari bilan ziynatlangan, oshiq va tilla shoxli ajdar o‘zi yashaydigan g‘orda qizning jamolini tomosha qiladi, och bo‘lganida esa g‘orning og‘zini katta tosh bilan bekitib, tilla shoxi bilan tilsimlab ketadi: „*Ajdar har kuni oqshom bo‘lganda g‘ordan chiqib, dumini bilanglatib qishloqlar ustida uchib yurar, o‘shqirib odamlarni damiga tortar ekan. Uchganda quyruqli yulduzning quyrug‘iday ko‘ringanidan odamlar juda qo‘rqar ekanlar*“ [O‘zbek xalq ertaklari. 10: 250]. Ertaklarda xalqning orzu-umidini, idealini o‘zida mujassamlashtirgan, mushkul topshiriqni bajarish orqali sinovdan o‘tuvchi hamda ertak tinglovchilar uchun motivatsion vazifani bajaruvchi qahramon uning haybatidan seskanadi, sakkiz qulochlik qanotidan hayratga tushadi: „*Tog‘ning past tomonga engashib turgan cho‘qqilariga qarab, ajdar qushning uyasi qaysi ekanini bilmay o‘tirgan ekan, kun botib, olam qorong‘ilashganda ajdar qush uyasidan dumini bilanglatib, toshlarni dumalatib, changallarni ildizi bilan ag‘darib chiqib kela beribdi. Polvon shunday qarasa, ajdar qush kelayotibdi, ikki yonida rosa to‘rt qulochdan sakkiz quloch qanoti bor. Badanidagi nuqtalaridan yalt-yalt etib olov shu‘lasi chiqib turibdi. Haybatidan ulug‘ daraxtlar yiqilib ketayotgan emish*“ [O‘zbek xalq ertaklari. 10: 251]. Mazkur tasvirlar mifning shakliy tomoniga aloqadordir, shu bilan birga ajdarning ilohiy qudratiga ham ishora qiladi. Mifologik obrazlarga xos bu kabi bayon usuli o‘zbek xalq ertaklarida, totemistik miflarda aniq ko‘rinadi. Ajdar qushning ilohiyligini va mifologik mazmunini ifoda etuvchi

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

predmetlar ham ochiq bayon qilinadi. Ajdar qushga mansub g‘ayritabiiy predmet uning shoxidir. G‘or og‘zini to‘sib turgan, yuz ming polvon ham ko‘tara olmaydigan toshni polvon yigit ana shu ajdar shohi orqali uloqtirib tashlaydi. „Aqlli qiz“ ertagida esa ajdar chiroyli qizga aylanib qoladi. Har ikkala ertakdagi mifologik obraz shuni ko‘rsatadiki, miflar o‘zbek xalq afsona va ertaklarining paydo bo‘lishida bir omil bo‘lgan.

Davrlar o‘tishi bilan ajdodlarimizning olovga bo‘lgan diniy-magik tasavvurlari natijasida unga og‘zidan **olov purkash motivi** yuklanadi. Mazkur motiv dev, sehrgar, ho‘kizlar haqidagi tasavvurlarda ham namoyon bo‘ladi. Shu tariqa folklor namunalarida yerda yuradigan, qanotli va dushmanga og‘zidan o‘t purkaydigan yaxlit obraz shakllanadi.

Ertaklarda ajdarho obrazining poetik funksiyalari kengaya borishi natijasida unda endi navbatdagi g‘ayritabiiy kuch – **damiga tortish tasviri** shakllanadi: „*Ajdaho bola bilan qo‘yni yeyish uchun avray boshlabdi. Qo‘y tipirlashdan to‘xtabdi. Bola mudray boshlabdi. Ajdaho nafasiga tortganida oldida bola, ketida „em“ bo‘lgan qo‘y ajdahoning og‘ziga yaqinlashibdi. Bolaning ikki oyog‘i ajdaho og‘ziga ro‘para bo‘libdi*“ [O‘zbek xalq ertaklari. 10: 355]. „**Quyosh yerining pahlavoni**“ o‘zbek xalq ertagidagi ushbu damiga tortish tasviri ijtimoiy hayotimizdagi zamonaviy multiplikatsion filmlarda ilonning sehr bilan – ko‘zlarini doira shaklida aylantirish orqali o‘z o‘ljasini avrashi shaklida ham davom etib kelayotir.

„**Aqlli qiz**“ o‘zbek xalq ertagida ajdar obrazi boshqa shu janr namunalaridan farqli ravishda **odamzodga yordam berishga** urinadi. Oti bilan birgalikda yelkasiga mingizib bir nafasda uzoq manzilga eltib qo‘yadi. Qiyin vaziyatlarda **maslahat berib boradi**: „*Ajdarning maslahati bilan qiz podshoh qoshiga borib, undan safarga kerakli narsalar berishni so‘rabdi. Podshoh qizning aytgan hamma narsasini beribdi. Qiz oziq-ovqatini g‘amlab bo‘lgandan keyin ajdarning yelkasiga minib, Anadir shahriga uchib boribdi. Ajdar qizga yaxshilab tushuntiribdi: „Malikaning uxlaganiga bir kam qirq kun bo‘lgan. U birvarakayiga qirq kecha-qirq kunduz uxlaydi. Ertaga erta bilan uyg‘onishi kerak. Hozir sen uning oldiga borib, o‘ziga tegsang, ro‘moliga tegma, ro‘moliga tegsang, o‘ziga tegma. Qizning arkiga chiqaverishda ikkita hujrada paxta bor, qo‘yni-qo‘njingni paxtaga to‘ldirib ol. So‘ngra ark zinasining ikki yog‘ida qo‘ng‘iroqlar bor, ular ichiga o‘sha paxtadan tiqib, keyin yuqoriga chiqaver. Oxiri arkka yetasan, – debdi*“ [O‘zbek xalq ertaklari. 9: 228]. Ertak avvalida „Avesto“dagi ajdarho kabi yovuzlik timsoli sifatida talqin qilingan bu personaj voqealar davomida

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

insoniyatning do‘sti sifatida namoyon bo‘ladi. Ajdar aqlli qizning xatti-harakati tufayli – garchi otini, bor narsasini yutib yuborgan bo‘lsa ham unga biron yomon so‘z aytmagani uchun yordam berishga qaror qiladi. Ajdarhoning mifologik qahramon sifatidagi faoliyati ham aqlli qizga bergan yordamidan boshlanadi. Ustoz folklorshunoslarimiz ta’kidlaganidek, „bu tip obrazlar ertak badiiy strukturasi qahramonga yordam beruvchi homiy-personaj, unga dushmanlik qiluvchi raqib-personaj, „g‘aroyib predmet“larni hadya etuvchi epik homiy kabi vazifalarda keladi“ [Mirzayev T. va b. 1: 152]. Odatda ertak va dostonlarda qahramon mushkul ahvolda qolganida ko‘pincha ot yo biron qush yoxud dev yordam beradi. Bu ertakda ham ajdar qizni yelkasiga mindirib bir zumda Rum viloyatiga yetib boradi. Xuddi qush kabi uchib, qizga yordam beradi, bu holat esa sehrli ertaklardagi obrazlarning semantikasiga xos lavhalardir. Ertak qahramonining keyingi sarguzashtlarida ham ajdar bilan bog‘liq mifologik sujet davom etadi. Ya’ni jahon xalqlari mifologiyasiga xos **evrilish motivi** bu obraz uchun ham begona emas. Ajdar bir yumalab otga, go‘zal qizga, chivinga aylana oladi: „Ajdar qiz bilan ot ikkisini yelkasiga ortib, Anadir shahriga qarab uchibdi, sal fursatda manzilga yetibdi. So‘ngra ajdar qizga: – Ey qiz, bu otni o‘zing ol, men bir yumalab xuddi shu otga o‘xshab qolaman, meni podshohga eltib berasan. Uning qizini olib, yo‘lga tushaverasan, men orqangdan yetib olaman, – debdi-da, bir yumalab ot bo‘lib qolibdi“ [O‘zbek xalq ertaklari. 9: 229]. Bu jarayonda metamorfoza hodisasi mazkur ertakning muhim tarkibiy qismi sifatida ishtirok etadi. Bir yumalab chiroyli qizga aylangan ajdarhoning yangi qiyofaga evrilishi bilan ushbu obrazning mifologik mazmuni ham nihoyasiga yetadi. Ta’kidlash lozimki, „Aqlli qiz“ ertagi sehrli ertaklar turkumiga mansubdir. Zotan, metamorfozaning g‘ayritabiiy obrazlarni paydo qilishi va mifologik mazmunga bog‘liqligi ana shunday fikrga undaydi. Ajdar obrazidagi ayni xususiyatlar uning totemistik tasavvurlar bilan bog‘liqligini va metamorfozaning eng arxaik ko‘rinishiga oidligini dalillaydi.

Ba’zi ertaklarda ajdarho obrazi **semurg‘ qushi** va uning kattakon, baland chinor daraxtidagi polaponlari bilan bog‘liq motivning bir qismi sifatida tasvirlanadi. Jumladan, „Qahramon“ o‘zbek xalq ertagida Qahramon ismli yigit ajdarni yengish orqali semurg‘ bolalarini o‘limdan qutqarib qoladi: „Bir vaqt uzoqdan bir narsa daryoga o‘xshab, yaltirab ko‘rinibdi. Bu ajdar ekan. U pishqirib og‘zidan o‘tlar sochib, yaqinlasha boshlabdi. Uni ko‘rib semurg‘ bolalari chirqillashib, qaltirashib, onalarini yo‘qlay boshlabdilar... Bir vaqt ajdar yetib kelib, chinorga tirmashib chiqa boshlabdi. U semurg‘ning bolalariga yaqinlashib, endi yeyman deb qo‘lini cho‘zgan

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

paytda, Qahramon kamondan ketma-ket ikki o‘q uzibdi...“ [O‘zbek xalq ertaklari. 9: 28] Voqealar rivojida ertak qahramoni ajdar bilan kurashib, uni yengadi. Semurg‘ bolalarining mehrini qozonadi va ona semurg‘ yordamida uchib o‘tolmas dengizdan o‘tadi. Fikrimizcha, ajdar obrazi bunday o‘rinlarda semurg‘ qushi ishonchiga erishish uchun vosita vazifasini bajargan. Ayni motiv „Ayiqqolvon“ o‘zbek xalq ertagida yana ham aniqroq o‘z ifodasini topgan: „Ayiqqolvon yer yuziga qaytib chiqish ilojini topolmabdi. Yer ostidagi mamlakatni keza boshlabdi. Kunlardan bir kun g‘amgin bo‘lib o‘tirgan paytda bir chol uchrab: ... Mana bu baland tog‘ tepasiga chiqib qarasang, bir tup chinor ko‘rinadi. U chinorga semurg‘ uya solgan. Har yili ikkita bola ochadi. Bolasini bir ajdar yeb ketadi. Yana yigirma bir kunda ajdar chinorga yopishadi. Uni o‘ldirsang, ehtimol, bolalarini o‘limdan saqlaganing evaziga semurg‘ sen izlagan hayot daraxtini topib berar, – deb ko‘zdan g‘oyib bo‘libdi“ [O‘zbek xalq ertaklari. 10: 94].

„Ajoyib ul-maxluqot“ muallifining yozishicha, uzunligi uch gaz (2,7 metr) va yoshi uch yuz yildan oshgan ilon ajdahoga aylanadi. Ajdahoning yoshi besh yuz yilga yetganidan so‘ng baliq kabi ikki yonidan qanot chiqarib, suvda ham bemalol suzgan, suv jonzotlarini ovlagan. Avom kishilarning e‘tiqodicha, Ajdahoning yuragini iste‘mol qilgan odam qo‘rqmas, botir, agar terisi oshiq kishining taomiga qo‘shib berilsa, ishq dardidan forig‘ bo‘larkan. [<https://uz.wikipedia.org> 11] Shuningdek, „Avesto“dagi Aji-daxak obrazi va Irg bitigidagi (VIII asr) ajdar obrazi ham shohlikning ramzi sifatida talqin qilingani [Насимхон Р. 6] ushbu obrazning ibtidoiy tafakkur bosqichida muhim ahamiyat kasb etganligi bilan birga, ramziy obraz sifatida qo‘llanganidan dalolat beradi. Ular har ikkala manbada ham mifologik mazmunini o‘zgartirmagan. Ajdaho haqidagi mifologik qatlamda bu obraz ko‘p boshli yovuz maxluq sifatida ko‘rinadi. Ajdaho ko‘p yillar yashaydigan ilonga aylanadi. U ertaklarda insonlarni va shaharlarni halokatga muhtalo qiluvchi jonzot sifatida talqin qilinadi.

Shuni ham unutmash kerakki, ajdar ismi bilan ataluvchi mifotoponimlar ayrim o‘zbek xalq afsonalarida ham mavjud. Masalan, etnograf G.P.Snesarev bergan ma‘lumotlarga ko‘ra, Ko‘hna Urganchdan 50 kilometr uzoqlikda Ajdar bobo deb ataladigan joy bor. Ajdar bobo mifotoponimi aslida etimologik jihatdan Azbar bobo ismining fonetik o‘zgargan variantidir. Bu joyning Ajdar deb atalishiga sabab shuki, afsonalarga ko‘ra u oldiga chiqqan odamlarni, garchi ular millionta bo‘lsa ham, supurib tashlayvergan. Umuman, folklorshunos Jabbor Eshonqulovning „Folklor, obraz va talqin“ tadqiqotida ta‘kidlanganidek, „bu obrazlar xalq tafakkur tarixining,

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

xayoloti va dunyoqarashining bir bo‘lagi sifatida tadqiq qilinmog‘i shart. Shundagina biz an’anaviy obrazlar va xalq og‘zaki ijodiga to‘g‘ri baho bergan bo‘lamiz“ [Эшонкулов Ж. 3: 7].

Adabiyotlar:

1. Mirzayev T., Turdimov Sh., Jo‘rayev M., Eshonqulov J., Tilavov A. O‘zbek folklori. – Toshkent, 2020.
2. Бартольд В.В. Сочинения. Том IV. - Москва, 1967. – С. 115.
3. Эшонкулов Ж. Фольклор: образ ва талқин. – Қарши: Насаф, 1999.
4. Жирмунский В.М., Зарипов Х.Т. Узбекский героический эпос. – Л: Наука, 1974. – Б. 308-309.
5. Мифы народов Мира. Энциклопедия в двух томах. 2-том. – Москва, 1992. – С. 171-174.
6. Насимхон Раҳмон. Турк хоқонлиги. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 1993.
7. Фрэзер Дж. Фольклор в Ветхом Завете. – М.: ИПЛ, 1986. Пропп В.Я. Исторические корни волшебной сказки. – Л., 1986.
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. Тўртинчи жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2008. – Б. 385.
9. O‘zbek xalq ertaklari. Uch jildlik. Birinchi jild. – Toshkent: O‘qituvchi, 2014 [O‘zbek xalq ertaklari. 9: 214-215]
10. O‘zbek xalq ertaklari. Uch jildlik. Ikkinchi jild. – Toshkent: O‘qituvchi, 2007.
11. https://uz.wikipedia.org/wiki/Ajdaho_obrazi